

AGROBIZNES, FAN VA TEKNOLOGIYALAR

**АГРОБИЗНЕС, НАУКА
И ТЕХНОЛОГИИ**

**AGRIBUSINESS,
SCIENCE AND
TECHNOLOGY**



**ILMIY - AMALIY
ELEKTRON JURNAL**

№ 083688



ISSN: 3060-5245

TOSHKENT - 2026



BOSH MUHARRIR

Oblomuradov Narzullo Naimovich – i.f.d. (DSc), professor.

Bosh muharrir o'rinbosarlari:

Islamov Soxib Yaxshibekovich – q.x.f.d. (DSc), professor.

Sultonov Kamoliddin Sadriddinovich – q.x.f.d. (DSc), professor.

Farmonov To'liqin Xayitmurodovich – i.f.d. (DSc), professor.

Muharrir:

Beglayev Uchqun Xurramovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent.

Tahrir hay'atining xalqaro a'zolari:

Kusainov Xalel Xaymullayevich – i.f.d. professor (Qozog'iston davlat texnologiya universiteti)

Vilija Aleknevičienė – i.f.d. professor (Universitet Vitovta Velikogo)

Gilbert Ludwig – professor, (Jamk University of Applied Sciences)

Bobojonov Ixtiyor Baxtiyorovich – i.f.d. professor (Germaniyaning Leybnits nomidagi Markaziy Osiyoda qishloq xo'jaligini rivojlantirish instituti (IAMO))

Daiva Makutenene – professor, (Vitautas Magnus universiteti, Litva)

Xaitboyeva Nargiza Alikulovna – i.f.d. dotsent (Tojikiston davlat huquq, biznes va siyosat universiteti)

Tahrir hay'ati:

08.00.00-Iqtisodiyot fanlari:

Gulyamov Saidasror Saidaxmedovich – i.f.d. (DSc), professor;

Saidov Muxammad-Ali Xakimovich – i.f.d. (DSc), professor;

Rustamova Iroda Baxramjanovna – i.f.d. (DSc), professor;

Ochilov Ilhom Sayitqulovich – i.f.d. (DSc), professor;

Askarov Nazimjon Niyozovich – i.f.d. (DSc), professor;

Abdullayev Altinbek Yangibayevich – i.f.d. (DSc), professor;

Abduvasikov Abduaziz Abdulazizovich – i.f.n. professor;

Mamadiyarov Dilshad Uralovich – i.f.n. dotsent;

Achilov Mashrab Ulug'bekovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Galimova Feryuza Rafikovna – i.f.n. dotsent;

Odilova Dilnozaxon Barnayevna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Yangiboyev Dilshod G'ulomovich – i.f.f.d. (PhD);

Saidova Dildora Nurmatovna – i.f.n. dotsent;

Dexkanova Nilufar Sagdullayevna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Roziqov Jahongir Mustaqim o'g'li – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Boltayev Nurali Shiramatovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Ibragimova Madina Ismoilovna – i.f.f.d. (PhD), dotsent.

06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari:

Shokirov Alisher Djuraboyevich – q.x.f.d. (DSc), professor;

Mardanov Husniddin Xolbozorovich – q.x.f.d. (DSc);

Abdiyev Fozil Rashidovich – q.x.f.d. (DSc);

Sattorov Maqsud Axtamovich – q.x.f.d. (DSc);

Yuldashov Nurbek Ergashovich – v.f.d. (DSc);

Xalmirzayev Dilmurad Kamilovich – q.x.f.d. (DSc), dotsent;

Namazov Ixtiyor Choriyevich – q.x.f.d. (DSc), professor;

Eshonqulov Jamoliddin Saporboy o'g'li – q.x.f.d. (DSc), professor;

Abdullayev Anvar Kodirullayevich – b.f.n., katta ilmiy xodim;

Atabayev Ma'ruf Maxmudovich – q.x.f.n. professor;

Safarov Asqar Asadullayevich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;

Mustafakulov Davron Mamatqulovich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;

Kasimov Botir Sadriddinovich – q.x.f.f.d. (PhD);

Akramov Umiddilla Ikramdjanovich – q.x.f.n. dotsent;

Elboboyev Abdug'ani Shuxrat o'g'li – q.x.f.f.d. (PhD);

Muxammadov Yo'ldoshbek Akmal o'g'li – q.x.f.f.d. (PhD);

Maxmudova Shaxnoza Abdufattaxovna – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;

Idrisov Xusanjon Abdujabborovich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent.

MUASSIS

Toshkent davlat agrar universiteti

ALOQA UCHUN MA'LUMOTLAR

Manzil: Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko'chasi, 2-uy.

Jurnalning telegram manzili:

t.me/agrobiznes_elektronjurnal

E-mail: licht-1989@mail.ru

Jurnalning rasmiy sayti:

<https://www.agrobiznesjournal.uz>

Tel: +(998) 93 439 30 00

Jurnalning ilmiyligi:

Ma'lumot uchun, OAK Rayosatining 30.11.2024-yildagi №364/5-sonli qarori bilan 08.00.00-Iqtisodiyot fanlari bo'yicha, 08.05.2025-yildagi №370/5-sonli qarori bilan 06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga kiritilgan.

Elektron nashr, 911 sahifa.
E'lon qilishga 2026-yil 31-martda ruxsat berildi.



**“AGROBIZNES, FAN VA
TEKNOLOGIYALAR” ILMIY-AMALIY
ELEKTRON JURNALI**

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko‘rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati.

06.00.00 – QISHLOQ XO‘JALIGI FANLARI

- 06.01.01 – Umumiy dehqonchilik. Paxtachilik
- 06.01.02 – Melioratsiya va sug‘orma dehqonchilik
- 06.01.03 – Agrotuproqshunoslik va agrofizika
- 06.01.05 – Seleksiya va urug‘chilik
- 06.01.06 – Sabzavotchilik
- 06.01.07 – Mevachilik va uzumchilik
- 06.01.08 – O‘simlikshunoslik
- 06.01.09 – O‘simliklarni himoya qilish
- 06.01.11 – Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini saqlash va qayta ishlash
- 06.02.02 – Qishloq xo‘jaligi hayvonlarini oziqlantirish va ozuqa tayyorlash texnologiyasi
- 06.02.03 – Xususiy zootexniya. Chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish texnologiyasi
- 06.03.01 – O‘rmon ekinlari. Seleksiya, urug‘chilik va shaharlarni ko‘kalamzorlashtirish. O‘rmonlar agromelioratsiyasi va himoya o‘rmonlarini barpo etish, Dorivor o‘simliklar introduksiyasi, yetishtirish texnologiyasi va agrofarmekologiyasi.



YAHYOXONOV NIYOZHO'JA BAHROIL O'G'LI

Savdo korxonalarida raqamli marketingdan foydalanish tahlili (Amazon va Alibaba kompaniyalari misolida).....589

IBRAGIMOVA MADINA ISMOILOVNA

Xizmat ko'rsatish tarmoqlarida innovatsion rivojlanishning konseptual asoslari.....602

XALIKOVA LOLA NAZAROVNA

Ijtimoiy himoya sotsial - iqtisodiy munosabat sifatida.....608

ULASHOVA ZARNIGOR BOTIRALI QIZI

Ayollar tadbirkorligini rivojlantirishga ta'sir qiluvchi omillar.....615

URALOV ELIBOY OMONOVICH

Buxoro viloyati sanoatini hududiy tarkibini takomilashtirish yo'llari.....623

ИБРАГИМОВА МАДИНА ИСМОИЛОВНА, САНГИРОВ БАХТИЁР БАХОДИРОВИЧ

Проблемы обеспечения экологической эффективности и внедрения «Зеленых» инноваций в сфере услуг.....629

ESHMAXMATOV ULUG'BEK ERKIN O'G'LI

Mintaqaviy sanoatni rivojlantirishning iqtisodiy mexanizmlari.....636

RAHIMBOYEV MUXTORBЕК IKROM O'G'LI, QIYOMOV SOHIBJON

O'zbekiston Respublikasining demografik tendensiyalari va prognozi.....644

ХАЛИКОВ СУЮН РАВШАНОВИЧ, КУЧКОРОВ ОТАБЕК СОБИРЖОН УГЛИ

Улучшение инновационных технологий и его эффективности в развитии рыбного хозяйства.....655

BEKBERGENOV G'AYRAT SHUXRATOVICH

Raqamli transformatsiyaning mintaqaviy tadbirkorlik samaradorligiga ta'sirini baholash: raqamli tayinlik indeksi asosida.....668

DILDORA YULDASHEVA

Agroklaster faoliyatida asosiy fond qaytimining moliyaviy barqarorlikni ta'minlashdagi ahamiyati.....674

G'AYBULLAYEV SARVAR O'KTAM O'G'LI

Mintaqalarda chakana savdo rivojlanish darajasini baholash usullari va mezonlari.....683

NOSIROVA SANOBAR SABIRDJANOVNA

Qishloq hududlarida agroturizmni rivojlantirish: talab va raqamli yondashuvlar.....696

KUDRATOV DILSHOD SHARIPOVICH

O'zbekiston fond bozorida aksiyadorlik jamiyatlarining likvidliligini oshirishning strategik yo'nalishlari.....704

SOATMO'MINOVA ZARNIGOR OLIMJON QIZI

Surxondaryoda mehnat bozori: rivojlanish tendensiyasining iqtisodiy va statistik tahlili.....714

RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING MINTAQAVIY TADBIRKORLIK SAMARADORLIGIGA TA'SIRINI BAHOLASH: RAQAMLI TAYINLIK INDEKSI ASOSIDA

BEKBERGENOV G'AYRAT SHUXRATOVICH

Ma'mun universiteti o'qituvchisi

E-mail: gayrat.bekbergenov@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada raqamli transformatsiya jarayonlarining mintaqaviy tadbirkorlik samaradorligiga ta'siri raqamli tayinlik indeksi asosida kompleks baholandi. Tadqiqotda O'zbekiston Respublikasining 14 ta mintaqasi bo'yicha 2018–2024-yillar panel ma'lumotlari umumlashtirildi. Natijalar raqamli tayinlik indeksining oshishi tadbirkorlik samaradorligini sezilarli ravishda kuchaytirishini, ayniqsa raqamli infratuzilma, inson kapitali va institutsional muhitning moslashuvchanligi hal qiluvchi omil ekanini ko'rsatdi. Shuningdek, mintaqalar o'rtasidagi raqamli tafovut, chegaraviy effekt va differensial siyosat zarurati asoslab berildi.

Kalit so'zlar: raqamli transformatsiya, mintaqaviy tadbirkorlik, raqamli tayinlik indeksi, samaradorlik, panel ma'lumotlar tahlili, raqamli infratuzilma, inson kapitali, O'zbekiston.

Аннотация. В статье на основе индекса цифровой готовности дана комплексная оценка влияния процессов цифровой трансформации на эффективность регионального предпринимательства. В исследовании обобщены панельные данные по 14 регионам Республики Узбекистан за 2018–2024 годы. Результаты показывают, что рост индекса цифровой готовности статистически значимо повышает эффективность предпринимательства, а ключевую роль играют цифровая инфраструктура, человеческий капитал и адаптивность институциональной среды. Также обоснованы наличие цифрового разрыва между регионами, порогового эффекта и необходимость дифференцированной региональной политики.

Ключевые слова: цифровая трансформация, региональное предпринимательство, индекс цифровой готовности, эффективность, панельный анализ данных, цифровая инфраструктура, человеческий капитал, Узбекистан.

Abstract. This article provides a comprehensive assessment of the impact of digital transformation on regional entrepreneurship efficiency on the basis of the Digital Readiness Index. The study summarizes panel data for 14 regions of Uzbekistan for 2018–2024. The findings show that higher digital readiness significantly increases entrepreneurship efficiency, while digital infrastructure, human capital and institutional adaptability play the most important roles. The paper also confirms the existence of regional digital gaps, a threshold effect and the need for differentiated policy support.

Keywords: digital transformation, regional entrepreneurship, digital readiness index, efficiency, panel data analysis, digital infrastructure, human capital, Uzbekistan.

KIRISH

XXI asrning uchinchi o'n yilligida raqamli transformatsiya jahon iqtisodiyotining barcha tarmoqlarini tubdan o'zgartirmoqda. Raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi va ularning iqtisodiy jarayonlarga chuqur integratsiyalashuvi yangi iqtisodiy paradigma — raqamli iqtisodiyotni

shakllantirmoqda. Ushbu global tendensiya ayniqsa tadbirkorlik sohasida sezilarli o'zgarishlarni keltirib chiqarmoqda va bu mintaqaviy iqtisodiy rivojlanish dinamikasiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda.

O'zbekiston Respublikasi ham ushbu jarayonlarga faol qo'shilmoqda. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyalarida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida belgilangan. Shu bilan birga, raqamli transformatsiyaning mintaqaviy tadbirkorlik samaradorligiga ta'sirini ilmiy asoslangan metodologiya yordamida baholash masalasi hali yetarli darajada o'rganilmagan.

Mazkur tadqiqotning dolzarbligi raqamli tayinlik darajasini hududiy tadbirkorlik samaradorligi bilan bog'liq holda baholovchi integratsion yondashuv zaruratidan kelib chiqadi. Tadqiqotning maqsadi — raqamli transformatsiyaning mintaqaviy tadbirkorlik samaradorligiga ta'sirini raqamli tayinlik indeksi asosida kompleks baholash va empirik jihatdan asoslashdir. Tadqiqot ob'ekti sifatida O'zbekiston Respublikasining 14 ta mintaqasi bo'yicha tadbirkorlik subyektlari tanlandi, predmeti esa raqamli transformatsiya jarayonlarining tadbirkorlik samaradorligiga ta'sir mexanizmlaridan iborat deb olindi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Raqamli transformatsiya tushunchasi ilmiy adabiyotda turli kontekstlarda talqin qilinadi. Westerman va hammualliflar uni raqamli texnologiyalar hamda biznes modellarining integratsiyasi orqali tashkilot faoliyatini tubdan o'zgartirish jarayoni sifatida izohlaydi. Vial esa mazkur jarayonni qadriyat yaratish mexanizmlarini strategik qayta qurish bilan bog'laydi. Ushbu yondashuvlar raqamli transformatsiyaning nafaqat texnologik, balki institutsional va boshqaruv jihatlarini ham ochib beradi.

Audretsch va Belitski, Acs va boshqalar tadbirkorlik samaradorligini ko'p o'lchovli ko'rsatkich sifatida baholash lozimligini ta'kidlaydi. Resursga asoslangan, institutsional va ekotizim yondashuvlari mintaqaviy tadbirkorlikni talqin qilishning uch asosiy paradigmasi sifatida ajralib turadi. Ularning har biri raqamli muhitda yangi mazmun kasb etib, infrastruktura, boshqaruv sifati, bozorlar va inson kapitali omillarini integratsiyalashni talab qiladi.

Xalqaro amaliyotda DESI, NRI, IDI va Digital Readiness Index kabi ko'rsatkichlar qo'llaniladi. Biroq ushbu indekslar asosan mamlakat darajasida ishlab chiqilgan bo'lib, mintaqaviy tadbirkorlik kontekstiga to'liq moslashtirilmagan. Shu sababli tadqiqotda mintaqaviy DRI modeli taklif etildi.

Nambisan, Autio, Zhao, Chen va boshqa olimlar raqamli texnologiyalar tadbirkorlik imkoniyatlarini aniqlash, baholash va amalga oshirish mexanizmlarini chuqur o'zgartirayotganini ko'rsatadi. Empirik tadqiqotlar raqamli iqtisodiyotning innovatsion tadbirkorlik, moliyaviy inklyuziya va hududiy raqobatbardoshlikka ijobiy ta'sirini tasdiqlaydi. Shunga qaramay, O'zbekiston mintaqalari bo'yicha kompleks empirik tadqiqotlar hali kam.

1-jadval

Raqamli transformatsiyaning evolyutsion bosqichlari

Bosqich	Asosiy texnologiyalar	Tadbirkorlikka ta'siri
Raqamlashtirish (1990–2005)	Internet, ERP tizimlari, ma'lumotlar bazalari	Asosiy jarayonlarni avtomatlashtirish, tranzaksion xarajatlarni kamaytirish
Raqamli optimallashtirish (2005–2015)	Bulutli texnologiyalar, mobil ilovalar, ijtimoiy tarmoqlar	Biznes modellarni optimallashtirish, mijozlar bilan o'zaro aloqani kengaytirish
Raqamli transformatsiya (2015–h.v.)	Sun'iy intellekt, IoT, blockchain, katta ma'lumotlar	Yangi qadriyat zanjirlari, platformali iqtisodiyot va ekotizimli yondashuvning shakllanishi

Manba: muallif materiallari asosida tuzgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda mintaqaviy raqamli tayinlik indeksi uchta sub-indeks asosida shakllantirildi: raqamli infratuzilma, raqamli inson kapitali va raqamli institutsional muhit. Yakuniy indeks quyidagi ko'rinishda aniqlandi:

$$DRI_i = \sum (w_j \times SI_{ij}), j = 1...3$$

bu yerda DRI_i — i-mintaqaning raqamli tayinlik indeksi, SI_{ij} — sub-indeks qiymati, w_j — vazn koeffitsienti.

Vazn koeffitsientlari AHP va entropiya usullarining o'rtacha natijasi asosida belgilandi, ko'rsatkichlar esa min-max normalizatsiya usuli bilan qayta hisoblandi.

Tadbirkorlik samaradorligi indeksi (EEI) mehnat unumdorligi, innovatsion faollik, o'sish sur'ati, rentabellik va bandlik yaratish kabi beshta komponent asosida baholandi:

$$EEI_i = \sum (v_k \times P_{ik}), k = 1...5$$

Ekonometrik model. Raqamli tayinlik va tadbirkorlik samaradorligi o'rtasidagi bog'liqlik panel ma'lumotlar modeli yordamida baholandi. Modelda mintaqaviy va vaqt fiksirlangan ta'sirlar, shuningdek, nazorat o'zgaruvchilari sifatida aholi jon boshiga YAIM, urbanizatsiya, oliy ta'lim qamrovi, tashqi savdo ochiqligi, moliya sektori rivojlanganligi hamda hukumat xarajatlari ulushi kiritildi.

$$EEI_{it} = \beta_0 + \beta_1 DRI_{it} + \sum \gamma_m X_{mit} + \mu_i + \lambda_t + \varepsilon_{it}$$

Model tanlash uchun Hausman testi, endogenlikni yumshatish uchun esa 2SLS va GMM usullaridan foydalanildi. Shuningdek, nochiziqli va chegaraviy regression modellar ham qo'llanildi.

Ma'lumotlar manbalari. Tadqiqotda O'zbekiston Respublikasi Statistika qo'mitasi, Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi, Markaziy bankning to'lov tizimlari statistikasi, "Raqamli O'zbekiston" monitoring platformasi va mintaqaviy hokimliklar ma'lumotlaridan foydalanildi. Kuzatuvlar 14 mintaq va 2018–2024-yillar davrini qamrab oldi.

2-jadval

Mintaqaviy DRI tarkibiy ko'rsatkichlari

Sub-indeks	Asosiy ko'rsatkichlar	Vazni
Raqamli infratuzilma	Keng polosali internet, mobil aloqa qamrovi, internet tezligi, raqamli to'lovlar, IT kompaniyalar	0.35
Raqamli inson kapitali	Raqamli savodxonlik, IT mutaxassislar ulushi, STEM ta'limi, onlayn ta'limdan foydalanish, raqamli ko'nikmalar	0.35
Raqamli institutsional muhit	E-hukumat xizmatlari, raqamli regulyatsiya, ma'lumotlar himoyasi, raqamli moliya, startap ekotizimi	0.30

Manba: muallif ishlanmasi.

TAHLILLAR VA NATIJALAR

Mintaqalarning raqamli tayinlik indeksi. Hisob-kitoblarga ko'ra, 2024-yilda Toshkent shahri 0,817 ko'rsatkich bilan raqamli tayinlik bo'yicha yetakchi o'rinni egalladi. Undan keyingi o'rinlarda Toshkent viloyati (0,611), Samarqand viloyati (0,559) va Buxoro viloyati (0,534) joylashdi. Xorazm viloyatining DRI ko'rsatkichi 0,445 bo'lib, u o'rtacha rivojlangan hududlar guruhiga yaqinlashgan. Eng past natija Qoraqalpog'iston Respublikasida (0,330) kuzatildi. Bu holat mintaqalar o'rtasidagi sezilarli raqamli tafovut mavjudligini ko'rsatadi.

Ekonometrik tahlil natijalari. Hausman testi natijalari fiksirlangan ta'sir modelidan foydalanish maqsadga muvofiqligini ko'rsatdi ($\chi^2=34,72$; $p<0,01$). Asosiy regressiya natijalariga ko'ra, DRI koeffitsienti barcha modellar kesimida ijobiy va statistik jihatdan ahamiyatli bo'lib qoldi. GMM modeli bo'yicha DRI 1 foiz punktga oshganda EEI o'rtacha 0,467 foiz punktga ortishi aniqlandi.

Nochiziqli model natijalari DRI va EEI o'rtasida teskari U-shaklidagi bog'liqlik mavjudligini ko'rsatdi. DRI² koeffitsientining manfiy va statistik ahamiyatli bo'lishi raqamli tayinlik darajasi oshgani sari marjinal ta'sirning bosqichma-bosqich kamayishini anglatadi. Chegaraviy regressiya tahlili esa DRI=0,52 qiymatidan yuqorida raqamli tayinlikning tadbirkorlik samaradorligiga ta'siri yanada kuchayishini ko'rsatdi. Bu "raqamli kritik massa" effektining mavjudligini tasdiqlaydi.

Sub-indekslar bo'yicha tahlil natijalarida raqamli inson kapitalining ta'siri eng yuqori ekani aniqlanib, undan keyingi o'rinlarda raqamli infratuzilma va institutsional muhit turdi. Mazkur holat tadbirkorlar va xodimlarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish siyosatiga ustuvor ahamiyat berish zarurligini ko'rsatadi.

Pandemiya davri bo'yicha dinamik tahlil ham muhim xulosalarni berdi. 2020-yilda EEI qisqa muddatli pasayishga uchragan bo'lsa-da, DRI o'sishda davom etdi. Bu raqamli tayinlik darajasi yuqori hududlarda tadbirkorlikning tiklanish tezligi yuqoriroq bo'lganini anglatadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari O'zbekiston mintaqalarida raqamli tayinlik darajasi bir xil emasligini va bu tafovut tadbirkorlik samaradorligiga sezilarli ta'sir ko'rsatishini

tasdiqladi. DRI ko'rsatkichining oshishi EEI o'sishini rag'batlantiradi, ya'ni raqamli transformatsiya mintaqaviy tadbirkorlikni rivojlantirishning muhim drayveri hisoblanadi.

Empirik natijalarga ko'ra, raqamli inson kapitali tadbirkorlik samaradorligiga eng kuchli ta'sir qiluvchi omil bo'lib, raqamli infratuzilma va institutsional muhit undan keyingi o'rinlarni egallaydi. Shu sababli faqat texnik bazani kengaytirish emas, balki raqamli ko'nikmalarni keng ommalashtirish ham zarur.

Tadqiqot asosida quyidagi amaliy takliflar ishlab chiqildi: birinchidan, barcha mintaqalarda "raqamli ko'nikmalar markazlari"ni tashkil etish va tadbirkorlar uchun maqsadli treninglarni kengaytirish; ikkinchidan, keng polosali internet va raqamli to'lov infratuzilmasini davlat-xususiy sheriklik asosida rivojlantirish; uchinchidan, IT-parklar va raqamli startaplar ekotizimini hududlar kesimida kuchaytirish; to'rtinchidan, mintaqalarni DRI darajasi bo'yicha klasterlash asosida differensial siyosat yuritish; beshinchidan, DRI 0,52 chegaraviy qiymatidan past hududlarda bazaviy raqamli infratuzilmaga ustuvor sarmoya yo'naltirish maqsadga muvofiq.

3-jadval

Klasterlar bo'yicha strategik tavsiyalar

Klaster	Strategik yo'nalish	Ustuvor chora-tadbirlar
Raqamli yetakchi	Raqamli innovatsiya markazi sifatida rivojlantirish	Sun'iy intellekt va blockchain markazlari; hududlararo mentorlik dasturi
Faol rivojlanuvchi	DRI=0,52 chegaraviy qiymatidan o'tishni ta'minlash	Raqamli infratuzilmani kengaytirish; IT kadrlar tayyorlashni kuchaytirish
O'rtacha rivojlangan	Raqamli inson kapitali defitsitini bartaraf etish	Maqsadli raqamli ta'lim dasturlari; raqamli mentorlik
Rivojlanishi sust	Bazaviy raqamli infratuzilmani yaratish	Internet qamrovini kengaytirish; asosiy raqamli xizmatlarni yo'lga qo'yish

Manba: muallif ishlanmasi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Acs, Z.J., Autio, E., & Szerb, L. National systems of entrepreneurship: Measurement issues and policy implications // Research Policy. – 2014. – Vol. 43(3). – P. 476–494.
2. Autio, E., Nambisan, S., Thomas, L.D., & Wright, M. Digital affordances, spatial affordances, and the genesis of entrepreneurial ecosystems // Strategic Entrepreneurship Journal. – 2018. – Vol. 12(1). – P. 72–95.
3. Barney, J. Firm resources and sustained competitive advantage // Journal of Management. – 1991. – Vol. 17(1). – P. 99–120.
4. Brynjolfsson, E., & McAfee, A. The Second Machine Age: Work, Progress, and Prosperity in a Time of Brilliant Technologies. – New York: W.W. Norton & Company, 2014.
5. Chen, Y., Guo, F., & Wang, J. Digital financial inclusion and regional entrepreneurship: Evidence from China // Small Business Economics. – 2022. – Vol. 59(3). – P. 1103–1127.

6. Goldfarb, A., & Tucker, C. Digital economics // Journal of Economic Literature. – 2019. – Vol. 57(1). – P. 3–43.
7. Hansen, B.E. Threshold effects in non-dynamic panels: Estimation, testing, and inference // Journal of Econometrics. – 1999. – Vol. 93(2). – P. 345–368.
8. Isenberg, D. The entrepreneurship ecosystem strategy as a new paradigm for economic policy. – Dublin: Institute of International and European Affairs, 2011.
9. Nambisan, S. Digital entrepreneurship: Toward a digital technology perspective of entrepreneurship // Entrepreneurship Theory and Practice. – 2017. – Vol. 41(6). – P. 1029–1055.
10. North, D.C. Institutions, Institutional Change and Economic Performance. – Cambridge: Cambridge University Press, 1990.
11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini 2022–2026-yillarda rivojlantirishning yangi O‘zbekiston strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni. 2022-yil 28-yanvar.
12. Vial, G. Understanding digital transformation: A review and a research agenda // The Journal of Strategic Information Systems. – 2019. – Vol. 28(2). – P. 118–144.
13. Westerman, G., Bonnet, D., & McAfee, A. Leading Digital: Turning Technology into Business Transformation. – Boston: Harvard Business Review Press, 2014.
14. Zhao, T., Zhang, Z., & Liang, S. Digital economy, entrepreneurship, and high-quality economic development: Empirical evidence from urban China // Frontiers in Economics and China. – 2021. – Vol. 15(1). – P. 1–42.
15. Abdullayev, A.M. O‘zbekistonda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish istiqbollari // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. – 2023. – №11(3). – B. 45–58.
16. Karimov, N.G. Mintaqaviy tadbirkorlik samaradorligini baholash metodologiyasi//O‘zbekiston iqtisodiy axborotnomasi.–2022.–№5(2).–B. 23–37.
17. Raximova, D.Sh. Raqamli transformatsiya va kichik biznes: O‘zbekiston tajribasi // Biznes-ekspert. – 2023. – №8(4). – B. 112–128.
20. Feruzbek Mamun Universiteti Biznesni Boshqarish: Jumaniyozov, F. (2024). Opportunities to create new jobs in the context of the transition to a "green" Economy. University Research Base, 264-267.
21. Bekbergenov, G. (2026). Mintaqa iqtisodiyotini rivojlanishida tadbirkorlik faoliyati samaradorligining rolini empirik jihatdan tahlili. Muhandislik va iqtisodiyot, 4(1).
22. Otabekovich, O. R. U. B. (2025). O‘zbekiston qishloq xo‘jaligida agroklastar tizimining shakllanishi, iqtisodiy samaradorligi va ijtimoiy ta’siri (2018–2024-YILLAR TAHLILI). Raqamli iqtisodiyot (Цифровая экономика), (13. I), 274-281.